

**“Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 2024-yil 4 oyida kadrlarni tayyorlash,
qayta tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovka bo‘yicha amalga oshirgan
ishlari to‘g‘risidagi
HISOBOT**

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan 2024-yilda **634 nafar** xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovkaga yuborish rejalashtirilgan.

Ushbu maqsadlarga jami **488,7 (488 742 000) mln. so‘m** mablag‘ sarflanishi rejalashtirilgan.

Shu jumladan:

- Respublika o‘quv markazlarida - **206 nafar**;
- Jamiyat o‘quv markazida - **408 nafar**;
- Respublika oliy ta‘lim muassasalarida xodimlar va talabalarni tayyorlash - **8 nafar**;
- Respublika oliy ta‘lim muassasalarida xodimlarni qayta tayyorlash - **2 nafar**;
- Xorijiy davlatlarda xodimlarni malakasini oshirish (stajirovka) - **10 nafar**.

2024-yil 4 oyida amalda

Respublika o‘quv markazlarida **23 nafar** xodimlar malakasini oshirgan.

Jamiyat o‘quv markazida **207 nafar** xodimlar malakasini oshirgan.

Shuningdek, o‘quv mashg‘ulotlariga rahbarlik qilgan 3 nafar rahbar xodimlar jami 1 512 725 so‘m miqdorida pul mukofoti bilan rag‘batlantirilgan.

“Dehqonobod kaliy zavodi”AJ obyektlarda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashni tashkil etish bo‘linmasining mas‘ulari tomonidan tegishli bo‘lim va sexlarda belgilangan grafik asosida yong‘in xavfsizligi qoidalari bo‘yicha 54 nafar ishchi xodimlar o‘qitildi.

**Respublika oliy ta‘lim muassasalarida jamiyat mablag‘lari hisobidan tahsil
olayotgan xodimlar va talabalar**

- D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filialida sirtqi ta‘lim bo‘yicha **2 nafar** xodim;

- D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filialida **6 nafar** talaba;

- O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 4 oylik qayta tayyorlash o‘quv kursida **2nafar** xodimlar tahsil olishgan.

**O‘z mablag‘lari hisobidan Respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida
tahsil olayotgan xodimlar**

- D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filialida 14 nafar xodimlar;

- Respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida sirtqi ta‘lim bo‘yicha jamiyatning **72 nafar** xodimlari o‘z mablag‘lari hisobidan tahsil olishmoqda.

- Jamiyatga birlashtirilgan Dehqonobod kimyo sanoati kollejida hozirgi vaqtda **6 nafar** xodimlar dual ta'lim bo'yicha va 3 nafar xodimlar sirtqi ta'lim bo'yicha tahsil olishmoqda.

Ustoz-shogird an'anasi bo'yicha

Ustoz-shogird an'anasi bo'yicha ishga qabul qilingan **37 nafar** xodimlarga **14 nafar** mutaxassis xodimlar ustoz sifatida birlashtirilgan. Hozirgi vaqtda shogirdlarga amaliy mashg'ulotlar o'tib borilmoqda.

Shuningdek, bir lavozimdan boshqa lavozimga o'tgan **34 nafar** xodimlarga **12 nafar** xodimlar ustoz sifatida birlashtirilgan. Hozirgi vaqtda shogirdlarga amaliy mashg'ulotlar o'tib borilmoqda.

AMALIYOTLAR

Oliy ta'lim muassasalari

Bakalavr 4-bosqich. Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialining 10 nafar talabalari, Toshkent kimyo-texnologiya institutining 7 nafar talabalari, Qarshi davlat universitetining 4 nafar talabalari, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialining 1 nafar talabasi bitiruv oldi amaliyotini o'tashmoqda.

Bakalavr 3-bosqich. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 1 nafar talabasi ishlab chiqarish amaliyotini o'tamoqda.

Professional ta'lim muassasalari

2-bosqich. Dehqonobod tuman 1-sonli kasb-hunar maktabining 2 nafar talabalari bitiruv oldi amaliyotini o'tashmoqda.

1-bosqich. Dehqonobod kimyo sanoati kollejining 34 nafar talabalari ishlab chiqarish amaliyotini o'tamoqda.

Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha

1. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2024-yil 23-fevraldagi 112-i/ch sonli buyrug'iga asosan 2024-yil 26-fevral kundan boshlab 2024-yil 26-avgust kuniga qadar 20 nafar xodimlar ingliz tili bo'yicha o'qitilmoqda. O'qituvchi bilan 6 oy muddatga fuqaroviy-huquqiy tuzilgan shartnoma tuzilgan. O'quv kurslari haftasiga 3 kun ish vaqtidan keyin ya'ni 17:00-19:00 gacha tashkil etilmoqda.

2. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2024-yil 22-apreldagi 244-i/ch sonli buyrug'iga asosan 2024-yil 23-aprel kundan boshlab 2024-yil 23-sentabr kuniga qadar 25 nafar xodimlar rus tili bo'yicha o'qitilmoqda. O'qituvchi bilan 5 oy muddatga fuqaroviy-huquqiy tuzilgan shartnoma tuzilgan. O'quv kurslari haftasiga 2 kun ish vaqtidan keyin ya'ni 17:00-19:00 gacha tashkil etilmoqda.

O'quv markazi boshlig'i

E.Hasanov